

Ma`naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqiyosidagi vazifa bo`lib, bu ezgu maqsad yo`lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat`iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi.

Foydanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o`qitish metodikasi. O`quv qo`llanma. T.; TDPU. 2007.
2. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. "Texnologiya" 2-sinf darsligi. T.; "Sharq". 2018.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat ta`limi 3-sinf darsligi. T.: "Sharq". 2016.
4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Safarova R.G., Abdullayeva B.S. Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi. Darslik.- Toshkent, 2019.

TA'LIM JARAYONI UCHUN NAZORAT QILUVCHI TESTLAR

YARATISH IMKONIYATLARI

Ayupova Sevarabonu Abduraxim qizi

Yuldosheva Sevdora Hasanboy qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari yo`nalishi talabalari

Hozirgi paytda raqamli ta`lim kontentlarini ishlab chiqish va ularni ko`paytirish kun masalasiga aylangan. Raqamlashtirish sharoitida ta`lim jarayoni uchun turli soxalar uchun video darslar, raqamli darslik qo`llanmalar, raqamli viktorinalar, ma`ruzalar to`plami, bilimlarni nazorat qiluvchi test va h.k. Jumladan, elektron test yaratish ham shular jumlasidandir. Ta`lim jarayoni uchun yuqoridagi kabi kontentlarni yaratishda turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish mumkin. Bugungi kunda sir emaski, kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi turli imkoniyatlarga va qulayliklarga ega bo`lgan dasturlar yaratilmoqda. Masalan, Auto Play, Hot Potatoes, My Textx, EasyTestMaker, Kahoot. Aynan ta`lim jarayoni

uchun nazorat qiluvchi testlarni yaratishda iSpring Suite dasturi bir qator qulay imkoniyatlarni taqdim etadi.

Elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishda keng foydalanib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri Ispring Suite dasturi hisoblanadi. Odatda, taqdimotni tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat bu mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda Internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring QuizMarker, iSpring PRO va iSpring Kinetics kabi variantlarga ega. Shuningdek, olimlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi.

iSpring Suite nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o'quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o'quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

Power Point- taqdimotlar bazasida o'quv kurslarini yaratish;

- Audio va video fayllarni birlashritish;
- Interaktiv testlar yaratish;
- Interaktiv bloklar yaratish;
- Masofaviy ta'lim tizimi uchun ma'lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o'zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring dasturini uskunalari PowerPoint dasturining

menyular satriga sozlanadi. iSpringning o'rnatilishi muvofaqiyatli bajarilgandan so'ng, Power Pointga iSpring insturimental qatori qo'shiladi. iSpringning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flash formatga o'ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audio va videolar bilan Fleshta tayyorlangan fayl yaxshiroq bo'ladi. Eslatma, aytish kerakki iSpring Proga qo'shiladigan xar bir ma'lumot Windows uchun o'ziga xos ahamiyatga ega.

iSpring Pro yordamida:

- Windowsda Flashni muomilaga chiqarish;
- Prezentatsiyani tadqiq etish;
- Window bilan bog'lanish;
- Windowni taqdim etish;
- Windowda audio yozish;
- Windowda video yozish;
- Windowda sinxron qilish;
- Windowga so'rovlar qo'yish;
- Windowni Flashga kiritish mumkin.

iSpring dasturini quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;

- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;

- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;

- video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);

- masofaviy o‘qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish.

Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri iSpring Suite dasturlar to‘plamidir. iSpring Suite dasturlar paketiga iSpring Pro, iSpring QuizMaker, iSpring Kinetics jamlangan. Ular yordamida audio, video, interaktiv elementlar va testlar bilan boyitilgan onlayn taqdimot materiallari va o‘quv kurslari, har xil so‘rovnomalar, anketalar, interaktiv testlar kabi bir qancha elektron nashrlar tashkil etish imkoniyati mavjud.

Bu dasturlardan iSpring QuizMaker dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratadi. Interaktiv testlarni iSpring QuizMaker dasturi yordamida tuzish uchun kompyuterga iSpring Suite dasturi bilan Adobe Flash (operatsion tizim razryadiga ko‘ra 32 va 64 bitli) dasturi o‘rnatilishi talab etiladi. Dastur o‘rnatib bo‘lingach Пыск menyusidan Все программы bo‘limida iSpring Suite tanlanadi va natijada oyna paydo bo‘ladi. Test bo‘limiga kirib новый тест bo‘limi tanlanadi

iSpring modulining ilk interfeysi dastur boshqa elektron testlar yaratish dasturlaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- dasturning ishchi fayli ixtiyoriy kompyuterga ko‘chirib qo‘yilishi va ishlashi mumkin;
- juda kam amallar ketma ketligi bajariladi;
- maxsus bilimlar talab etilmaydi;
- testlarning 11 xil turini yaratish mumkin;
- test savollari va javoblariga rasm, formula va video joylashtirish mumkin;
- test natijalari to‘g‘ridan to‘g‘ri elektron pochtaga jo‘natiladi;
- dastur litsenziyaga ega va ochiq kalitli ekanligi.

Kompyuterga iSpring Suite dasturlar paketi o‘rnatilgach, iSpring Quiz maker bloki yordamida elektron testlar tuzish imkoniyati mavjud.

Testlar bazasi yaratilgach, darsning qaysi qismida foydalanishiga qarab testlar soni va test o‘tkazish vaqti belgilanadi. Interfeys ko‘rinishini foydalanuvchi

ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartirish mumkin. Tayyor testlar bazasini yaratib bo‘lgach, uni lokal tarmoq uchun, global tarmoq uchun, xujjat shaklda (MS Word) yoki LMS tizimi uchun saqlash imkoniyati mavjud. Dasturda yaratilgan elektron testlar bazasi ishchi fayli .swf formatda saqlanadi. Demak, ushbu testlar bazasidan foydalanish uchun kompyuterda Adobe Flash Player dasturi mavjudligi yetarli.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, iSpring Suite dasturida yaratilgan testlar ta’lim sohasida turli xil fanlar bo‘yicha ham qo‘llash mumkin. Bu testlar orqali o‘quvchilarni bilim darajasini nazorat qilish va oshirish imkoniyati mavjuddir. Bunda o‘quvchi darsdan qandaydir ma’noda chalg‘iydi. Bu chalg‘igani ham fan doirasida bo‘ladi. Test dars jarayonini qiziqarli o‘tishini ham ta’minlaydi. Chunki testni turlari juda ko‘p va qiziqarlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Bahadirovna, S. D. (2022, February). Enrich educational content through multimedia resources using digital technologies. In Conference Zone (pp. 220-221).

2. Uroкова, S., & Tuhtashev, U. (2019). Trends of electronic education development. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(12), 768-771.

3. Бакиева, З. Р., & Мамараджапов, О. Э. (2017). К вопросу о мобильном обучении с помощью современных технологий и язык программирования java. In Информатика: проблемы, методология, технологии (pp. 13-16).

4. Laylo, B., & Malika, D. (2023). Capabilities of scratch for working with animations. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 1118-1120.

5. Ilyich, M. E. (2023, November). Aspects of improving the education system in technological universities. In E Conference World (No. 2, pp. 128-137).

6. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. (2022). Use of addie model components in the development of public open online course digital learning resources. Conference Zone, 48–51. Retrieved from <https://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/511>

7. Elmurzaevich, M. O. (2023, November). IMPROVING DIGITAL COMPETENCE USING CLOUD TECHNOLOGIES. In E Conference World (No. 2, pp. 148-153).

8. Abduraxmanova Shaxnoza Abduxakimovna, & Saydivosilov Saidiabzal Anvar ugli. (2023). The need to develop the digital technology skills of future computer science teachers in Uzbekistan. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 64-67. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2874>

9. Elmurzayevich, M. O. (2023). IMPROVING DIGITAL COMPETENCE THROUGH CLOUD TECHNOLOGIES. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 68-70.

10. Abduxakimovna, A. S. (2021). Use of multimedia technologies in the development of intellectual skills of students of pedagogical higher education institutions. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 8(1), 1483-1488.

IJTIMOIIY TARMOQLARNING JAMIYAT HAYOTIGA TA’SIRI

Ochilova Zarnigor Inoyatovna

Shoumarova Oqila Tojiddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi talabalari

Hozirgi globallashuv jarayonida o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtirolaridan biri bo‘lmish ijtimoiy tarmoqlarni chetlab o‘tolmaymiz. Joriy vaqtda ijtimoiy tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham ijtimoiy tarmoqlarni yaxshi ko‘radi. Kimga internetda o‘z rasmlarini qo‘yish, olis masofadagi do‘stlar va qarindoshlar bilan gaplashish, o‘yinlar o‘ynash, musiqa tinglash va so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lish, statuslarni tinmay o‘zgartirish yoqmaydi deysiz? Shu sababdan bugungi